

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS OF THE REPUBLIC
OF UZBEKISTAN

АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ НОМИДАГИ ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА
УНИВЕРСИТЕТИ

ДЖИЗАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМ. АБДУЛЛА КАДИРИ

JIZZAK STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY NAMED AFTER ABDULLA KADIRI



**“ТАЪЛИМДА ФИЛОЛОГИЯНИ
РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ГЛОБАЛ МАСАЛАЛАРИ”
МАВЗУСИДАГИ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
АНЖУМАН МАТЕРИАЛЛАРИ**

2023 йил 12 июнь

**"ГЛОБАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ФИЛОЛОГИИ В
ОБРАЗОВАНИИ"
МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ
КОНФЕРЕНЦИИ
12 июня 2023 г.**

**"GLOBAL ISSUES OF DEVELOPMENT OF PHILOSOPHY IN EDUCATION"
PROCEEDINGS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE
june 12, 2023**

**Тошкент
“METODIST NASHRIYOTI”
2023**

ЎЎК: 811.512.131
811.111
811.521
82/821.0
82/820

Муаллифлар жамоаси

“Таълимда филологияни ривожлантиришнинг глобал масалалари” мавзусида ўтказилган халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. Мақолалар тўплами. – Тошкент: “METHODIST NASHRIYOTI”, 2023, 376 б.

Ушбу тўплам Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар Вазирлигининг Фармойиши асосида Жиззах давлат педагогика университетида 2023 йил 12 июнь куни ўтказилган “Таълимда филологияни ривожлантиришнинг глобал масалалари” мавзусидаги халқаро миқёсидаги илмий-амалий анжумани (онлайн) материалларидан ташкил топган.

Тўплам материалларидан мутахассислар, ўқитувчилар, тадқиқотчилар ҳамда магистратура ва бакалавриат талабалари фойдаланишлари мумкин.

Мақола ва тезисларнинг илмий савияси, маълумотларнинг ҳаққонийлигига муаллифларнинг ўзлари масъулдирлар.

Таҳрир ҳайъати:

1. Жуманазаров У.А., ф.ф.д., профессор.
2. Ибрагимова Ф.Э., ф.ф.н., доцент.
3. Сиддиқова Ш.И. филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент.
4. Насруллаев Э.Ж., филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент.
5. Болтаева Б.И., филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент.
6. Хаджимусаева Н.Э., филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент.

Мақолаларни тўпловчи ва нашр учун масъул:

Жуманазарова Г.У.

филология фанлари доктори, профессор

Абдулла Қодирий номидаги Жиззах Давлат Педагогика университети Кенгашининг 2023 йил 5-июндаги 10-сонли Қарори билан нашрга тавсия этилган.

ISBN 978-9943-9629-3-4

© “METHODIST NASHRIYOTI”, 2023.

Шундай қўшнига яқин бўлмаслик, ҳамсоянинг кимлигини билмай иморатни ҳар жойдан солмаслик лозим. Ойда ғубор борлигини ҳамма билади, чунки у кўриниб туради. Бир одамнинг калта, ўзгасининг узун бўйли эканлигини ҳам ҳар бир нигоҳ англай олади. Аммо қўшнининг ички дунёсини, руҳиятини билиш мушкул иш. У ойнинг ғубори ёки бўйнинг узун-калталигидай кўзга ташланиб турмайди. Бу эса қўшни танлаш мушкул вазифалардан бири эканлигини кўрсатади. Ҳа, қўшни танлай олиш, қўшни билан мустаҳкам яқин алоқада яшай олиш халқона қадриятлардан биридир.

ISAJON SULTONNING “BILGA XOQON” ROMANI G’OYAVIY XUSUSIYATLARI

Ibragimova Dildora Inomjonovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o’qituvchisi

Annotatsiya. Tarixiy roman janri o’tmish voqealarini hikoya qilish asnosida bugungi kun muammolariga ajdodlar tajribasidan yechim izlash vositasi sifatida muhim hisoblanadi. O’zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonning turkiy xalqlar tarixidan hikoya qiluvchi “Bilga xoqon” romani turkiy xalqlarning bir maqsad yo’lida birlashishi, yurti rivoji uchun “ishi va kuchini” berishi nuqtai nazaridan barcha davrlar uchun muhim bo’lgan g’oyani o’zida aks ettiradi. Maqolaga mazkur romandagi tarixiy haqiqatlar hamda o’lmas g’oyalar tarannumi to’g’risida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Bilga xoqon, Kul Tigin xoqon, To’nyuquq, bilgich, turk budun, tabg’ach, ilk roman, tarixiy roman, tarixiylik va reallik.

Mavzuning dolzarbligi. O’zbek adabiyotida qadimgi turkiy xalqlar hayotiga oid badiiy asarlar kam uchraydi. Xususan, Temuriylar davridan oldingi turkiy xalqlar tarixiga oid badiiy asarlar adabiyotimizda sanoqli. Isajon Sultonning “Bilga xoqon” romani VIII asr turkiy xalqlar tarixiga oid ilk tarixiy roman sifatida maydonga keldi. Ma’lumki, tarixiy nasr tarixiy mavzuning badiiylashtirilgan shakli bo’lib, uning maqsadi shunchaki faktlarni taqdim etmasdan, ularni badiiy tarzda yetkazish, tarixiy syujet zahirida zamonaviy muammolarni yoritish hamda tajribadan o’tgan yechimlarni taklif qilishdan iborat. Shu nuqtai nazardan tarixiy romanlarni o’rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Isajon Sultonning “Bilga xoqon” [1] romani ilk bor “Sharq yulduzi” jurnalining 2019-yil 9-va 10-sonlarida e’lon qilindi. Asar kitob holda nashr etilguniga qadar adabiyotshunos olim N. Rahmonov “Mangu bitik toshlar ilhomi” [2] nomi bilan asarga oid fikrlarini matbuotda e’lon qildi. “Albatta, bu tarixiy mavzuga har qanday ijodkor ham jur’at qilib qo’l uravermaydi, deb yozadi munaqqid. - Chunki o’sha tarixiy davr murakkab. Romanga munosabat bildirishim uchun kitob bo’lib bosilib chiqishini kutish

ham mumkin edi. Mavzu ham, roman qahramonlari ham menga qariyb 40 yildan beri hamroh bo'lib kelyapti". N. Rahmonov roman yutuqlari haqida gapirar ekan, uning tarixiylik tamoyili asosiga qurilgani sabab yozuvchi ortiqcha dabdababozlikka, romantik kayfiyatlarga berilmagani, Bilga xoqon, To'nyuquq va Kultigin obrazlarini ideallashtirmagan holda, ularning real qiyofasini chizganini ta'kidlaydi.

Natija va muhokama. Asar xunlar tomonidan asos solingan Ko'kturklar sulolasi hamda mahalliy qabilalar hukmronligi ostida VI-VIII asrlarda davom etgan Osiyodagi buyuk turk imperiyasining vakillari haqida hikoya qiladi.

Tarixdan ma'lumki, VI asr boshida Turk davlati avarlar tomonidan boshqarilgan bo'lsa, 552-yilda Bumin xoqonning o'g'li Ko'kturk sulolasi hukmronlik davrini boshladi. Bumin xoqon Ko'kturk hukmronligini o'rnatgan yili vafot etdi va uning uch o'g'li birin- ketin taxtga chiqishdi. To'ng'ich o'g'li 553-yilda, ikkinchisi 553-572-yillarda va oxirgisi 572-581-yillarda taxtga chiqib hukmronlik qildi. Uch o'g'ildan faqat ikkinchisi Muqan xoqonga kuchli davlat barpo etish nasib etdi. U o'z davlatini Manjuriyadan Erongacha bo'lgan kuchli imperiyaga aylantirdi.

VI asr so'ngida birdamlikning yo'qligi, qabilalararo to'qnashuvlar, eng muhimi, Xitoy fitnalari tufayli davlat juda ko'p tartibsizliklarni boshdan kechirdi. 630-yilga kelib davlatning asosiy sharqiy qismi Tabg'ach budun hukmronligi ostiga o'tdi. Tabg'ach xalqi chegaralarining g'arbiy qismini ham egallay boshladi. Qutlug' xoqon yoki ikkinchi ismi bilan Eltarish xoqon Tabg'ach budun hukmronligiga chek qo'ydi va 680-682-yillarda davlatni qayta birlashtirdi. Eltarish xoqon vafotidan so'ng 691-yilda taxtga o'tirgan ukasi Qapag'an xoqon davlatning ulug'vorligini yana tikladi.

Eltarish xoqonning Bilga va Kul Tigin ismli ikki o'g'li xoqon vafoti vaqtida 8 va 7 yoshda edilar. 716-yilda Qapag'an xoqon vafot etgach aka-uka Bilga va Kul Tigin ota yurt boshqaruvini qo'lga oldi. Isajon Sultonning tarixiy romani Ko'kturklar davlatining Bilga xoqon yurt so'ragan yillari to'g'risida hikoya qiladi. Bilga xoqon [3] (Eski turkchada "Bilgatog", xitoycha "pinya ehin") tarixiy manbalarda Xudo kabi osmonda bo'lgan turk deb nomlanib, ikkinchi Ko'kturk xoqonligining xonlaridan biri. U turkiy xalqlar tarixidagi eng muhim shaxslardan biri hisoblanadi [4].

U 683-yilda o'sha paytda xonlikning markazi bo'lgan Chugay-Xuz tog'i atrofida tug'ilgan. 8 yoshida 691 yilda otasi Eltarish xoqon vafotidan keyin amakisi Qapag'on xoqon homiyligida o'sgan. Keyinroq ulasi Kul Tigin xoqon yordamida amakisining o'rniga taxtga o'tiradi va tarqoq qabilalarni birlashtirib markazlashgan yurt tuzadi. Isajon Sulton romanining bosh g'oyasi yetakchisiz, tarqoqlashgan va yo'qchilikka, ochlikka muhtalo bo'lgan xalqni og'ir ahvoldan qutqarish, birlik, hamjihatlik asosida yurt tuzishda Ko'ktangri bergan xoqon, rahnamoga ergashishdir. Ushbu g'oyani yanada rivojlantirish maqsadida turkiy xalqlar erkin va ozod xalq ekanini ta'kidlab **"Turkdan qul bo'lmas!"** shiori bir necha qahramonlar tomonidan qayta va qayta aytiladi. Ozodlik g'oyasini aks ettirarkan, muallif shunday yozadi:

“... Kishi o’g’li o’lgani tug’ilmish. Bir Tangri yashagay. Bu kun, yo’qsa, erta baribir o’lajaksan! Shunga deyman: qo’rqma! Shoqoldayin ochlikdan o’lma! Sillang qurib cho’zilib yotma! O’lsang, boshingni tik tutib o’l! Qolsang, ko’ksingni kerib-kerib yasha!”

Xulosa. Isajon Sulton tarixiy roman uchun mavzu sifatida turkiy xalqlarning birlashishi, erk uchun kurashi hamda shonli g’alabalarini tanlab olgani bejiz emas. G’alabalar – insonlarni ruhlantirish uchun xizmat qiladi. Ajdodlarning o’tmishdagi g’alabalari, mag’lubiyatlari, topishlari va yo’qotishlari sabablarini o’rganish milliy o’zlikni anglash yo’lida tajriba maktabi bo’lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Isajon Sulton. “Bilga xoqon” roman, qissalar va hikoyalar. Toshkent: Factor books nashriyoti, 2022.
2. N.Rahmonov. Mangu bitiktoshlar ilhomi: <https://uza.uz/posts/25169>.
3. "Ethno Cultural Dictionary, TÜRIK BITIG". <https://web.archive.org/web/20120301071802/http://irq.kaznpu.kz/index.php?l=t&wi=726&lang=e&mod=3>
4. Ibragimova D. I. O’ZBEK ADABIYOTIDA TARIXIY NASR. Vol. 2 No. 19 (2023): O’ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/6059>

СКОБОЧНЫЕ ВСТАВНЫЕ КОНСТРУКЦИИ В ЦИКЛЕ А. С. ПУШКИНА «ПОВЕСТИ БЕЛКИНА»

Кононова Ирина Юрьевна,

*преподаватель Чирчикского государственного педагогического
университета
konirina@inbox.ru*

Аннотация. В данной статье представлена формальная и функциональная характеристика вставных конструкций в цикле А. С. Пушкина «Повести Белкина»; сделан вывод о преобладании метаязыковой и метаречевой природы вставок в данном тексте.

Ключевые слова: вставные конструкции; функции вставных конструкций; метаязыковая функция; «Повести Белкина».

PARENTHETICALS IN A. S. PUSHKIN'S CYCLE "THE BELKIN'S TALES"

Abstract. This paper describes the formal and functional characteristics of parentheticals in A. S. Pushkin's cycle "The Belkin's Tales" and demonstrates the predominance of the metalinguistic nature of the parentheticals in this text.

Пардаева З.Ж., А.Кадыри МЕТАФОРИКА В РОМАННОЙ СИСТЕМЕ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА	179
Nasrullayev Elmurod Jumaboyevich, Ibrohimova M. ALISHER NAVOIY MA'RIFATI TALQINI	185
Д.Жуманазарова, Умрзокова М ХАЛҚ ДОСТОНЛАРИДА ОИЛА МАЪНАВИЯТИНИНГ ТАЛҚИНИ	192
Ibragimova D. I. ISAJON SULTONNING "BILGA XOQON" ROMANI G'OYAVIY XUSUSIYATLARI	194
Кононова И. Ю СКОБОЧНЫЕ ВСТАВНЫЕ КОНСТРУКЦИИ В ЦИКЛЕ А. С. ПУШКИНА «ПОВЕСТИ БЕЛКИНА»	196
Тўйчиева З. Ҳ., Abduolimova Z. A SAID AHMADNING "QORAKO'Z MAJNUN" NI KOYASIDA MILLIY FOJIA MASALASI	200
Razakova Shahnoza Dusmamatovna. EAST AND WEST, NAVOI AND GOETHE	203
Nodirova Feruza. SA'DULLA HAKIM SHE'RLARINING BADIY-G'OYAVIY TAHLILI	207
Shabidinova Zera Ismetovna. GERMAN PEARL AUTHOR JOHANN WOLFGANG VON GOETHE'S POEMS AND ITS DEFINITION	211
Мамаюсупова С.М. ҲИКОЯ КОНТЕКСТИДА ҚАРҒИШ, ДУО ВА ОЛҚИШЛАР БАДИИЯТИ ("Шукур Холмирзаев ҳикоялари мисолида")	215
Mardanov Rahim G'aybulla o'g'li. O'ZBEK NAVOIYSHUNOSLIGIDA SHOIR SHE'RIYATIDAGI OBRAZLAR TALQININING O'RGANILISHI	218
JarkinovaTursunoyAbdumajitovna. XX ASR 60-70-YILLAR DAVR ADABIY MUHITI	222
Cho'liyeva Nilufar A'zamqizi. NAZAR ESHONQUL IJODIDA TOPOS RAMZLAR	226
Nurmatova Mashhura. O'ZBEK VA JAHON MUMTOZ ADABIYOTIDA SEVGINING GO'ZAL KO'RINISHI	229
Baratov Shokhruh Abdusamad ugli, Supervisor Razakova Shahnoza LITERARY RELATIONSHIP BETWEEN UZBEK AND GERMAN LITERATURE	233
Gulnoza Ahmedova Muxtorovna. NUTQ O'STIRISHNING ANA'NAVIY VA ILG'OR USULLARI ASOSIDA QOLIP GAPLARNI FAOLLASHTIRISH	237
Ashirbaev Azim,dotsent, Norboyeva Munisa, Lola Ibragimova, NUTQ ALOQASI VOSITASIDA GRAFIK TASVIRLARNI BAJARISH	240
Elbek O'rol o'g'li Ro'ziyev. O'ZBEK TILIDA SIYOSIY NUTQNING YUZAGA KELISHOMILLARI XUSUSIDA	245
Dilobar Sherali qizi Abduxalilova. MA'DANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH	247
Шагиева Наргис Фагимовна. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННОЙ РУССКОЙ ПОЭТИЧЕСКОЙ РЕЧИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА	251
Suyunova Marjona. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQIY MULOQOT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDAULARGA INNOVOTSION G'OYALAR KIRITISH	255